

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9  
2023




- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## **Bosh muharrir:**

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

## **Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

## **Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

## **Tahrir hay'ati:**

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

## **Ekspertlar kengashi:**

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni.....	7
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b> , tayanch doktorant	
Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlanlantirish yo'llari .....	11
<b>Mirjamilova Hulkar Nurali qizi</b> , assistent	
Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish .....	15
<b>Alimov Murodkosim Achilovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili .....	20
<b>Umarov Faxriddin Umar o'g'li</b> , katta o'qituvchi	
Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati .....	26
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi .....	31
<b>Abduvakil Alimov Komil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Ta'lif turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari.....	38
<b>Maxmudova Nodira O'ktamovna</b> , tayanch doktorant	
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari .....	43
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari .....	46
<b>Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich</b> , dotsent, i. f. n.	
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi.....	51
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , dotsent, PhD	
Turizmni rivojlanlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari .....	57
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish .....	62
<b>Olikulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li</b> , magistrant	
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан.....	66
<b>Султанходжаев Баҳтиёр Забиҳуллаевиҷ</b>	
O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlanlantirish strategiyasi .....	73
<b>Usmonov Botir</b> , magistr	
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish .....	78
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	82
<b>Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich</b> , PhD	
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds .....	87
<b>Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev</b> , the applicant	
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies .....	92
<b>Shakhzod Saydullaev</b> , PhD.	
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi .....	101
<b>Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	105
<b>Otamurodov Shavkat Nusratillayevich</b> , i. f. d. (DSc); <b>Eshqulova Nasiba Normo'minovna</b> , o'qituvchi	
Tijorat banki xizmatlarida ta'lif kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari.....	110
<b>Eldor Uskanov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish .....	114
<b>Maxmudov Nosir Maxmudovich</b> , professor; <b>Elmurodov Faxriddin Farxodovich</b> , magistratura tinglovchisi	



Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari .....	120
<b>Ergashev Otamurod Toshtemirovich</b> , PhD	
Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar .....	125
<b>Ermatov Musojalil Komilovich</b> , kafedrasi dotsenti v. b.; <b>Abdunazarov Oybek Abdumutlibovich</b> , katta o'qituvchi	
Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach .....	132
<b>Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich</b>	
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization.....	138
<b>Akobirova Nodira Najmuddin qizi</b> , assisntent	
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities.....	141
<b>Alimova Guzal Alisherovna</b> , PhD in economics, docent	
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari .....	146
<b>Jo'rayeva Sevara Zakirovna</b> , mustaqil izlanuvchi (PhD)	
Portfelli xorijiy investitsiyalarining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli .....	152
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b> , PhD	
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability .....	156
<b>Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna</b> , Professor	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslashning nazariy asoslari.....	163
<b>Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri.....	170
<b>Nabiiev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li</b> , tayanch doktorant	
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept .....	175
<b>Otakulov Makhamadjon</b> , PhD	
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari .....	181
<b>Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi</b>	
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida .....	185
<b>Sadikova Ra'no Abdullayevna</b> , i. f. n., dots.	
Davlat moliyasining moddiy assosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish .....	188
<b>Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni .....	191
<b>Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari.....	196
<b>Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li</b> , dekan o'rinosari	
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari .....	203
<b>Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich</b> , dotsent; <b>Adilbekov Allayar Anvarbekovich</b> , magistrant	
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni .....	206
<b>Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchisi	
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях.....	212
<b>Алиева Надирахон Абдумаликовна</b> , PhD. доц.; <b>Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи</b> , ст. 3-курса	
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish.....	217
<b>Z. G. Allaberganov</b> , kafedra dotsenti	
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish.....	222
<b>Asatullayev Xurshid Sunatullayevich</b> , i. f. n., professor	
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari.....	228
<b>Axmedova Yulduz Sunatullayevna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari .....	232
<b>Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna</b> , kafedra dotsenti	



Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish .236 <b>Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'satkichlari.....242 <b>Berdiev Akram O'ktamovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi .....253 <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>	
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari .....258 <b>Botirov Erkinjon Xayitovich</b> , kafedra dotsenti	
O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalg etish orqali investitsion salohiyatni oshirish .....263 <b>G'aybullayev Odil Baxtiyarovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....269 <b>Jubanova Bayramgul Aymuratovna</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatichiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari.....272 <b>Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li</b> , i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)	
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish.....278 <b>Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari .....284 <b>Qurbanova Shaxrinoz</b> , tayanch doktorant	
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar .....288 <b>Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna</b> , kafedra doktoranti	
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari .....292 <b>Mamirjon Jalollidinov</b> , mustaqil izlanuvchi	
Финансирование акционерных общества через рынок капитала .....297 <b>Муминов Шохжакон Суюнович</b> , ассистент кафедра	
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана .....302 <b>Муяддинов Махмуд Жалелович</b> , независимый исследователь	
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны.....307 <b>Назарова Гузал Баходировна</b>	
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari.....312 <b>Nozima Abdullayeva</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....316 <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b> , kafedra dotsenti v. b.	
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках.....326 <b>Тажимуратов Умид Рузматович</b> , <b>Бахриев Иброхим Исометдинович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Жуманиёзов Эркин Худойберганович</b> , кандидат медицинских наук, доцент; <b>Тажимуратов Рузмат Отажанович</b> , кандидат медицинских наук, <b>Тажимуратов Абдусами Умид угли</b> , ученик 10 класса	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili .....333 <b>Temirov Abdulaziz Alimjanovich</b> , kafedra dotsenti, i. f. n.	
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан.....339 <b>Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович</b> , DSc; <b>Одилова Дилноза Барнаевна</b> , PhD	
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli.....345 <b>Tosheva Ziroat Aliqul qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari .....	349
<b>To'rayeva Nafisa Odilovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
O dostizheniyaх Uзbekistana v realizatsii naionalnyx celей i zadach ustoychivogo razvitiya.....	355
<b>Tursun Muxitovich Ahmedov</b> , i. ф. д., prof.; <b>Gavhar Rustamovna Xidirova</b> , doktorant, i. ф. ф. д., doz.	
Vliyanie korporativnogo upravleniya v zelenoy ekonomike .....	359
<b>Urinov Bobur Nasilloevich</b> , zavedeyuchiy kafedroy	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari.....	366
<b>Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich</b> , kafedra dotsenti	
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'naliishlari.....	374
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b> , DSc.	
Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari.....	382
<b>Xayriddinov Sh. B.</b> , mustaqil izlanuvchi	
Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari .....	385
<b>Xolov Nabijon Qaxramonovich</b> , PhD.	
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari .....	391
<b>Xusanov Otabek Nishonovich</b> , PhD, mustaqil izlanuvchi	
Banklarining aktivlarini daromadlilagini oshirish yo'llari.....	396
<b>Elbusinova Umida Xamidullayevna</b> , kafedra dotsenti	
Osobennosti metodiki provedenia audita затрат на производство.....	401
<b>Хилола Икрамова Ровшан кизи</b> , bazovyj doktorant	
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni .....	407
<b>Bekdavlat Aliyev</b>	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari .....	412
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b> , kafedra dotsenti	
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari .....	416
<b>Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiylaridagi umumiylilik va xususiylik.....	420
<b>Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich</b> , falsafa fanlari doktori (PhD)	
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari.....	424
<b>Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna</b>	
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития .....	431
<b>Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна</b> , аспирант	
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari .....	440
<b>Xolmamatov Farhodjon Kubayevich</b> , iqtisodiyat fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor	
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'naliishlari va uning huquqiy asoslari .....	446
<b>Bobirjon Aktamov</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti.....	454
<b>Axmedov Sayfullu Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.....	459
<b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>	



# O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOB VA HISOBOTNI MHXSLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TASHKIL ETISH MASALALARI

**Qurbanova Shaxrinoz**

Farg'ona politexnika instituti tayanch doktoranti

**Annotasiya:** Maqolada asosiy vositalarni BHMS va MHXSlari asosida tan olish mezonlari tahlili, asosiy vositalarni kirimi, chiqib ketishi, qadrsizlanishi, amortizatsiyasi hisobini o'ziga xos jihatlari, moliyaviy hisobtlarda asosiy vositalar to'g'risidagi axborotlarni ochib berish shaffofligini investitsiya muhitiga ta'siri masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar,adolatli qiyamat, investitsion mulk, sotish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar, qadrsizlanish, amortizatsiya, eskirish, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, tugatish qiymati, baholash, tan olish.

**Abstract:** The article examines the analysis of the criteria for recognition of fixed assets based on the National Accounting Standards and IFRS, the issues of the impact on the investment environment of transparency of disclosure of information about fixed assets in financial statements, specific aspects of accounting for receipts, disposals, depreciation, depreciation of fixed assets.

**Key words:** fixed assets, fair value, investment property, fixed assets for sale, depreciation, impairment, depreciation, reporting of financial difficulties, cost of termination, valuation, recognition.

**Аннотация:** В статье рассматривается анализ критерииев признания основных средств на основе НСБУ и МСФО, вопросы влияния на инвестиционную среду прозрачности раскрытия информации об основных средствах в финансовой отчетности, специфические аспекты учета поступления, выбытия, амортизации, износа основных средств.

**Ключевые слова:** основные средства, справедливая стоимость, инвестиционная собственность, основные средства для продажи, амортизация, обесценение, износ, отчетность о финансовых затруднениях, стоимость прекращения, оценка, признание.

## KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi soha va tarmoqlarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga bog'liq. Investorlar tomonidan samarali investitsion qarorlar qabul qilishda xolis, shaffof, ishonchli axborotlar muhim rol o'yunaydi. Bu axborotlar odatda korxonaning moliyaviy hisobotlari orqali olinadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlaridagi aktivlar va majburiyatlar, moliyaviy natijalar bo'yicha ochib berilgan axborotlar, moliyaviy hisobotlarni tahlili natijasida olingen moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar mazkur biznes subyektiga investitsiya yotqizish, ya'ni qimmatli qog'ozlar(aksiya, obligatsiya)ni sotib olish yoki boshqa tur va shakllarda investitsiya kiritishga turki beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori mamalakatimizda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish hamda yuritish borasida tub burilish yasadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu qarorning qabul qilinishidan maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat edi.

Mazkur qarorda 2021-yil 1-yanvardan boshlab, mamalakatimizdag'i barcha yirik soliq to'lovchi korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari va taqdim etishlari belgilab qo'yildi. Bu o'z navbatida moliyaviy hisob va hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritadigan korxonalar uchun asosiy vositalar hisobi tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish maqsadida asosiy vositalarni tan olish, ularni



hisobdan chiqarish, baholash va qadrsizlanishga aniqlash yo'nalishlarida bir qator mezonlarni tanlab olish zaruratin keltirib chiqaradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobida tan olinishi, baholanishi, amortizatsiyasi bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olb borganlar. 20-asrni oxirigacha olib borilgan tadqiqotlarda asosiy vositalar tushunchasi bilan asosiy fondlar tushunchasi yoki atamasi bir xil ma'noni bergan. Asosiy fondlar tushunchasi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar to'plamini o'z ichiga olgan. Lekin 21-asrni boshlariga kelib fan, texnika taraqqiyoti, intellektual mulklarning turli ko'rinishlarini paydo bo'lishi va ishlab chiqarishda qo'llanilishi nomoddiy aktivlarni asosiy vositalardan alohida qilib, ajratib olinishini taqozo etdi. Shu sababli ayrim eski adabiyotlarda yoki tadqiqot ishlarida asosiy vositalar haqida fikr yuritilganda ularni asosiy fondlar deb yuritiladi.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor D. Kudbiyev asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Asosiy fondlar uzoq vaqt davomida moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida ishlaydi, tabiiy shaklini saqlab qoladi va eskirganligi, yaroqsizligi sababli asta-sekin, qismlab, foydalanish o'choviga (holatiga) qarab o'z qiymatini yo'qotadi. Moddiy ishlab chiqarishda asosiy fondlar yo'qotgan qiymatini ular yaratgan mahsulotga o'tkazadi".<sup>[1]</sup>

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor I. N. Ismanov fikricha "Asosiy vositalar – bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar".<sup>[2]</sup>

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Z. N. Kurbanov esa "Asosiy vositalar tovarlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish va xizmatlarni ko'rsatish, ijaraga berish yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljalangan, uzoq davr davomida ishlatiladi, o'zini natural shaklini o'zgartirmaydi, faqat eskirish qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ko'rsatilgan xizmat) tannarxiга yoki davr xarajatlariga o'tkazib boradi".<sup>[3]</sup>

A. Q. Shakarov ta'rifi bo'yicha asosiy vositalar "... sanoat binolari, inshootlar, kuch va qishloq xo'jaligi mashinasozligi, ishlab chiqarish uskunlari, transport vositalari va boshqa turdag'i asosiy vositalar".<sup>[4]</sup>

M. Z. Pizengoltsga ko'ra asosiy vositalar "... inson o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat obyektlariga inson ta'sirini o'tkazuvchi sifatida foydalanuvchi mehnat vositasidir".<sup>[5]</sup>

V. K. Sklyarenko, V. M. Prudnikovalar esa "asosiy vositalar – uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida faoliyat ko'rsatadigan, butun davr mobaynida o'z tabiiy va moddiy shaklini saqlab qoladigan va amortizatsiya to'lovlari shaklida eskiradigan mahsulotlarga o'z qiymatini qismlarga bo'lib o'tkazadigan ishlab chiqarish, moddiy va moddiy qiymatliklar majmui" deb ta'rif berishadi.<sup>[6]</sup>

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent G. M. Raximova o'z ilmiy ishlarida asosiy kapital, asosiy fondlar, uzoq muddatli aktivlar va asosiy vositalar terminlari mazmun-mohiyati bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud ekanligini ta'kidlagan holda "asosiy kapital takror ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish vositalarini ifodalaydi: ishchilarning mehnat qilish ko'nikmalar, moddiy resurslardan foydalanganda qayta ishlab chiqiladi. Fikrimizcha, bundan tashqari, asosiy kapital tarkibiga nafaqat mehnat vositalari, bino va inshootlar, balki ishchilar mehnati ham kirishi mumkin" deya fikr bildiradi.<sup>[7]</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda asosiy vositalar hisobini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sun qarori, O'zbekiston Respublikasining "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMS, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004 yil 16 avgustdag'i 101-sonli "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida"gi buyrug'i va unga ilova qilingan "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizom", 21-sun "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida" nomli BHMS, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sun qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida" Nizom, "Asosiy vositalar" nomli 16-sun BHXS, "Investitsion mulk" nomli 40-sun BHXS, "Aktivlarni qadrsizlanishi" nomli 36-sun BHXS, "Ijara" nomli 17-sun



BHXS, "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat" nomli 5-son MHXS, "Haqqoni qiymatni baholash" nomli 13-son MHXS, va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra "Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foya, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir. Buxgalteriya hisobi obyektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi".<sup>[10]</sup>

Bizga ma'lumki aktivlar o'z navbatida 2 qismga qisqa muddatli va uzoq muddatli aktivlarga turkumlanadi. Asosiy vositalar uzoq muddatli aktivlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shu sababdan asosiy vositalar hisobi buxgalteriya hisobini asosiy obyektlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif berilgan – "O'zbekiston Respublikasida birlik (to'plam) uchun belgilangan (asosiy vosita sifatida e'tirof etilgan sanadagi), qiymati bazaviy hisoblash miqdorining elliq baravari miqdoridan yuqori bo'lgan, soliq to'lovchida mulk huquqi asosida turgan (agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa) va soliq to'lovchi tomonidan tovarlarni ishlab chiqarishda (xizmatlar ko'rsatishda) yoki ma'muriy-boshqaruv ehtiyojlari uchun uzoq vaqt (davomiyligi o'n ikki oydan ortiq vaqt) mobaynida foydalilanidigan mol-mulk soliq solish maqsadlarida asosiy vosita deb e'tirof etiladi".<sup>[11]</sup>

Shuningdek, mazkur kodeksda korxonalar soliq solish maqsadlaridagi hisob siyosatida mol-mulk qiymatini asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun mol-mulkning eng kam chegarasini belgilashga haqli ekanligi ta'kidlangan.

Mamlakatimizda yaqin yillargacha barcha xo'jalik subyektlari buxgalteriya hisobida asosiy vositalar hisobini tashkil etish, ya'ni ularni tan olish, baholash, amortizatsiyasi 5-son "Asosiy vositalar" nomli BHMSda tartibga solingan. Mazkur BHMSda asosiy vositalarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Asosiy vositalar – korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar".<sup>[12]</sup>

BHMS talabiga ko'ra bir vaqtning o'zida bir yildan ortiq xizmat muddatiga ega, bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining elliq baravidan ortiq bo'lgan buyumlar kiradi. Shu bilan birga korxona rahbari hisobot yiliда buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2004-yil 16-avgustdagи 101-sonli "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni(yangi tahrirdagi) tasdiqlash haqida"gi buyrug'i va unga ilova qilingan "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risidagi Nizom"da asosiy vositalarni korxona balansidan chiqib ketishi tartiblari bayon etilgan. Xususan, asosiy vositalar qiymati quyidagilar natijasida balansdan chiqib ketishi ko'rsatilgan:

- tugatilish (yo'q qilinishi);
- sotib yuborilishi;
- almashtirilishi;
- boshqa korxonaga tekinga berib yuborilishi;
- boshqa korxonaga ta'sis maqsadlarida ustav kapitali sifatida o'tkazilishi;
- boshqa korxonaga moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi asosida berilishi;
- inventarizatsiya natijasida yo'qligi aniqlanganda;
- ta'sischilardan biri chiqib ketayotgan asosiy vosita bilan hisob kitob qilinganda.

Nizom asosiy vositalar chiqib ketishi jarayonlarini buxgalteriya hisobi provodkalarida aks ettirish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini belgilaydi.<sup>[13]</sup>

21-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'rqnomanli tasdiqlash to'g'risida" nomli BHMS asosiy vositalar hisobi bilan bog'liq barcha jarayonlarni, ya'ni asosiy vositalar bilan bog'liq kapital qo'yilmalar orqali kirib kelishi, baholanishi, amortizatsiyasi, inventarizatsiyasi, qayta baholanishi va chiqib ketishi bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya provodkalarida aks ettirish tartibotlarini belgilaydi.<sup>[14]</sup>

Asosiy vosita sifatida tan olish masalasini Buxgalteriya hisobining Milliy standarti bilan Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari o'tasidagi ahamiyati shundan iboratki BHMS asosiy vosita sifatida tan olingan aktivlarni barchasi ham MHXS bo'yicha asosiy vosita sifatida tan olinavermaydi. BHMS bo'yicha asosiy vosita sifatida tan olingan asosiy vositalar BHXS va MHXSlari bo'yicha 3 turdag'i aktivga ajratiladi. Ya'ni, asosiy vositalar, investition mulk va sotish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar.

MHXSlari mezonlari bo'yicha asosiy vosita kompaniyaning asosiy faoliyati, ya'ni ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita qatnashishi, savdo, boshqaruv jarayonlarida bilvosita qatnashishi, qiymati amortizatsiya ajratmasi sifatida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga ma'lum bir davr (kamida 1 yil) mobaynida kiritib borish orqali qoplanadigan aktivdir.



“Asosiy vositalar” nomli 16-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan – “Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo’ljallangan moddiy aktivlardir:

- (a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko’rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijara berish, yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo’ljallangan;
- (b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalaniishi kutilgan”.

Bu standartda asosiy vosita sifatida tan olinishi uchun aktiv(mehnat quroli)ning qiymatiga biron bir cheklov yoki talab qo’yilmagan.

Investitsion mulk esa kelajakda qiymati ortishi orqali yoki ijara berish orqali daromad olinadigan aktivdir. Bu aktiv ko’chmas mulk, yer, transport vositalari va boshqalar bo’lishi mumkin. Lekin bu aktivlar kompaniyaning ishlab chiqarish, xizmatlar ko’rsatish va ishlar bajarish jarayonlarida bevosita ham bilvosa ham ishlatalmaydi yohud foydalanimaydi, shuningdek, ular odatdagi xo’jalik faoliyatni bo’yicha sotishga mo’ljallangan mulk bo’imasligi kerak.

“Investitsion mulk” nomli 40-son BHXSda investitsion mulkka quyidagicha ta’rif berilgan: “Investitsion mulk – bu ijaradan daromad olish maqsadida yoki kapitalning qiymati oshishi uchun yoki ikkalasi uchun (mulk egasi yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida ijara oluvchi tomonidan) egalik qilinayotgan mulk (yer yoki bino – yoki binoning qismi – yoki ikkalasi) bo’lib, bunga quyidagi mulklar kirmaydi:

- (a) ishlab chiqarishda yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko’rsatishda yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanimadigan; yoki
- (b) odatdagi xo’jalik faoliyatidagi sotishga mo’ljallangan mulklar”.

Sotish uchun mo’ljallangan asosiy vositalarga ularning balans qiymati ulardan foydalanish natijasida amortizatsiya hisoblash orqali qoplash bilan emas, balki faqat sotish orqali qoplanadigan aktivlar kiradi. Bu turdagisi aktivlarni zaxiralardan farqi kompaniya bu aktiv(asosiy vositalar)dan muqaddam foydalangan, ularga amortizatsiya hisoblagan va keyinchalik ularni sotishga ahd qilgan bo’lishida.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida asosiy vositalarni moliyaviy hisobini yuritish va hisobotlar tuzish undan foydalanuvchilarda kompaniya asosiy vositalari to’g’risida real, shaffof axborotlarga ega bo’lish imkoniyatini yaratadi. Chunki korxonaning ijara bergan asosiy vositalari yoki keyinchalik qiymati ortishi prognozi asosida foya olish maqsadida egalik qilayotgan mulklari investitsion mulk sifatida hisobga olinishi va moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi. Kompaniyaning iqtisodiy nafi past bo’lgan asosiy vositalardan yoki ayrim rentabelligi oz faoliyat qismidan voz kechish maqsadida ularni sotish uchun mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlar toifasiga o’tkazishi ham moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot(balans)da asosiy vositalar qiymatini kamaytiradi.

Kompaniyaning moliyaviy holat to’g’risidagi(balans) hisobotida asosiy vositalar to’g’risidagi axborotni bu tarzda – faqat ishlab chiqarish, xizmatlar ko’rsatish, ishlar bajarish va ma’muriy boshqaruv hamda savdo faoliyida foydalanimayotgan asosiy vositalar bo’yicha ochib berilishi, hisobotdan foydalanuvchilarda, ya’ni mulk egalarida, korxonaga investitsiya kiritishni mo’ljallayotgan potensial investorlarda hisobotlarni real tahlilini amalga oshirish imkoniyatini yaxshilaydi. Chunki asosiy vositalar qiymati kompaniya rentabelligini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

### Foydalanimilgan adabiyotlar:

1. Кудбиеев Д. Особенности Учета Основных Средств В Узбекистане. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11. 2022. – С. 142-149.
2. Ismanov I. N. Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari.// Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. 2009-y.
3. Kurbanov Z. N. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobining dolzarb masalalari. // “Экономика и социум” №6(85) ч.1. 2021. – 752–763-betlar.
4. Shakarov A. Q. Asosiy vositalar hisobi va nazoratini tashkil qilish (mulkchilikning turli xil shakllarida). // Iqt. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2000.
5. Пизенгольц М. З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве [Текст] / М. З. Пизенгольц. – Москва: Инфра-М, 2014. – 520 с.
6. Скларенко В. К., Прудников В. М. Экономика предприятия. Изд. 2.. – Москва: Инфра-М, 2019. – 256 с.
7. Guzalbegim Murodovna Raximova. Asosiy vositalar hisobining nazariy asoslari. // Ilm-fan elektron jurnal. 08.01.2021-y.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lisingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.